Texnologiya

3



novda
edutainment

Education Alliance Finland
TIER 1
CERTIFIED

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

R.R.Ismailova

Texnologiya
3-sinf

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun darslik

Ta’limni rivojlantirish markazi huzuridagi ilmiy-metodik kengash tomonidan tavsiya etilgan.

TASDIQLANGAN PLAGIATGA QARSHI TASDIQLANGAN

novda edutainment

Toshkent – 2023

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
FARG'ONA VILOYATI
RISHTON TUMANI
MAKTABGACHA VA MAKTAB
TA'LIMI BO'LIMI
33-UMUMIY
O'RTA TA'LIM
MAKTABI
№ 83
18 - 10 2023 y.

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

UO'K
KBK

R.R.Ismailova
Texnologiya. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik / R.R.Ismailova. – Toshkent: "Novda Edutainment" nashriyoti, 2023. – 68 b.

Taqrizchilar:

T.S.Baluyeva – MMTV tasarrufidagi PMTIDUM boshlang'ich sinf o'qituvchisi;

G.F.Buzikova – MMTV tasarrufidagi PMTIDUM 1-toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

Shartli belgilar:



Savollarga javob bering



Guruh bo'lib ishlang

ISBN

© R.R.Ismailova
© "Novda Edutainment", 2023











Assalomu alaykum, qadrli o‘quvchilar!

Ushbu o‘quv yilida texnologiya darslarida biz ijodkorlik va hunarmandchilikning ajoyib olamini kashf etishda davom etamiz.

Turli mehnat qurollaridan qiziq narsalar yasashni o‘rganamiz. Yangi mehnat qurollari bilan tanishamiz, tikishni o‘rganamiz.

Sizga muvaffaqiyat tilaymiz!









O‘quv yili davomida sizga quyidagilar kerak bo‘ladi:

qora karton – **10 varaq;**
oq karton yoki rasm daftari – **1 dona;**
rangli karton to‘plami – **1 dona;**
rangli qog‘oz to‘plami – **3 dona;**
plastilin – **1 quti;**
flomasterlar, yelimli to‘pponcha;
sponj yoki gubka;
guash bo‘yoqlari;
qaychi;
chizg‘ich;
qora rangli marker;
yelim-qalam – **2 dona;**
paxta – **1 qadoq;**
pufak – **2 dona;**
bir martalik qoshiq – **1 dona;**
kanselyariya knopkasi – **1 quti;**
bir martalik qog‘oz stakan – **1 dona;**
to‘quvchilik ipi: olovrang yoki sariq, jigarrang, ko‘k yoki kulrang – **1 tadan kalava;**
olovrang yupqa fetr qog‘ozi (20x20 sm) – **2 dona;**
turli rangdagi fetr (10x10 sm) – **3 dona;**
karton vtulka – **2 dona;**
yog‘och shpatel – **2 dona;**
naycha – **6 dona;**
karton quti – **1 dona;**
havo-pufakli sellofan (10x10 sm) – **2 dona;**
plastik qopqoq – **4 dona;**
to‘pcha (plastik qopqoq kattaligida) – **1 dona;**
paxtali cho‘pchalar – **4 dona;**
gofra qog‘oz – **2 xil rang;**
plastik baklajka, yopishqoq tasma;
kartonli tuxum qutisi;
tikish va kashtachilik uchun ignalar;
chambarak, muline ip, tugmalar;
mato (10x10 sm) – **3 qiyqim;**
tikish uchun iplar.


TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI
PLASTILIN
PAZANDACHILIK
QOLDIQ MATERIAL
NARSA-BUYUM YASASH
RANGLI QOG‘OZ
QO‘L MEHNATI OLAMI

Rangli qog‘ozdan qush yasash



Qog‘oz juda qadimiy ixtiro bo‘lib, eng mashhur va keng tarqalgan materiallardan biridir. Qog‘oz ixtiro qilinishidan oldin odamlar ma’lumot yetkazish uchun loydan yasalgan lavhalar, yog‘och taxtachalar, mato, keyinchalik pergament va papirusdan foydalanishgan. Qog‘oz ilk bor Xitoyda ixtiro qilingan.

Qadimgi Xitoy tarixchilari qoldirgan yozuvlarga ko‘ra, qog‘oz ishlab chiqarishni ilk bor II asrda xitoylik Say Lun o‘ylab topgan. U yog‘och kuli, ipak tolasi va mato qorishmasidan qog‘oz ishlab chiqargan.

Qaychi va qog‘oz bilan ishlashning qanday qoidalari bor?
Qaychini qanday saqlash kerak?
Qaychi qanday uzatiladi?
Qog‘ozdan qanday foydalanish kerak?

Bugungi kunda qog‘ozdan gazeta, kitob, daftar, pul, gigiyena vositalari, salfetka va boshqa ko‘plab mahsulotlar ishlab chiqariladi. Rangli qog‘oz tayyorlash uchun bo‘yoqlardan foydalaniladi.

1 QR-kodni skanerlang

























Origami kit

Origami – qog‘ozni buklab shakllar yasash san’ati. Origamining vatani Yaponiya hisoblanadi.



Origami – bu konstruktor bo‘lib, unda detalni, ya’ni kvadrat qog‘oz varag‘ini buklab, yuzlab, minglab turli xil shakllar yasash mumkin.

Oddiy qog‘ozdan yaponlar mo‘jizalar paydo qilishadi. Ular yasagan shakllar binolar va turar joylarni bezab turadi. Yaponiyada qog‘ozdan yasalgan kusudama sharlari, turnalar va boshqalar baxt ramzi hisoblanadi.



Kit – kitsimonlar turkumiga mansub dengiz sutemizuvchisi. Kit dunyodagi eng yirik hayvondir. Ko‘k kit tanasining uzunligi 33 metr, og‘irligi esa 150 tonnagacha bo‘ladi. Unda ta’m va hid bilish hislari umuman yo‘q. Ko‘rish qobiliyati ham juda past. Bu hayvonning quloqlari yo‘q, lekin pastki jag‘ida joylashgan maxsus a’zolar tovushni eshitishiga yordam beradi.

Kitsimonlar quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

- mo‘ylovdor kitlar,
- tishli kitlar,
- qadimgi kitlar.

2 QR-kodni skanerlang

























Rangli qog‘ozdan chumoli yasash



Chumoli – eng qadimgi hasharotlardan biri. Chumoli juda mehnatkash va tabiatga katta foyda keltiradi. U ko‘p zararkunandalarni yo‘q qiladi. Chumoli dunyodagi eng kuchli jonivordir, u o‘z vaznidan 10 baravar og‘ir yukni ko‘tarishi mumkin. Chumoli ajoyib quruvchi hamdir. U o‘ziga nihoyatda qoyilmaqom inlar quradi va yashash joyini toza saqlaydi. Chumolilar ahil va inoq oila bo‘lib yashaydi. Oiladagi har bir chumolining o‘z majburiyati bo‘lib, ular quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

- qo‘riqchi chumolilar;
- ishchi chumolilar;
- razvedkachi chumolilar;
- enaga chumolilar;
- ovchi chumolilar.



Keling, chumolining ko‘rinishini eslaylik. Uning ko‘zlari boshida joylashgan, ikkita mo‘ylovi ham bor. Mo‘ylovlarini harakatlantirib, narsalarni hidlaydi va paypaslab ko‘radi. Chumoli uyasiga yo‘lni o‘ziga xos hidi orqali topadi. Chumolining quloqlari yo‘q. Ko‘krak qismi boshining orqasida joylashgan bo‘lib, ingichka beli gavdasini qorinchasi bilan bog‘laydi. Ba’zi chumolilarning qorinchasi tagida zaharli nishi bo‘ladi. Chumolilarning baquvvat jag‘i va uch juft oyog‘i ham bor.



3 QR-kodni skanerlang























Qurbaqa



Qurbaqa – suvda va quruqlikda yashovchi jonivor. Qurbaqalar chuchuk suv havzalarida hamda quruqlikda yashay oladi.

Qurbaqalarning tanasi kichik, orqa oyoqlari yirik bo‘ladi. Shu tufayli u juda balandga sakray oladi va xavf tug‘ilganda tezda berkinadi. Dumaloq va silliq tanasi suvda tez suzishga yordam beradi.

Ayrim qurbaqalar daraxtga chiqa oladilar, ayrimlari esa hatto daraxt ildizlari ostiga uya quradilar.



Qurbaqaning orqa panjasida suzgich pardalar bor. Shuning uchun suvda yaxshi suzadi. Qurbaqa panjasining shakli olimlarning g‘avvoslar uchun suvosti suzish moslamasi – suzgich panjalar ixtiro qilishiga turtki berdi.

Qurbaqa pashsha, chivin va boshqa hasharotlar bilan oziqlanadi. Qurbaqaning tili uzun va yopishqoq bo‘lib, yonidan uchib o‘tayotgan hasharotni ko‘rsa, tilini oldinga chiqaradi, o‘lja unga yopishadi va qurbaqa bu yopishib qolgan o‘ljani tezda yutib yuboradi.

Tabiatda qurbaqalarning xili juda ko‘p. Masalan, Kuba qurbaqasi jimjiloq barmoqning tirnog‘icha keladi. Kamerunning goliaf qurbaqasi esa aksincha, 6 kilogrammgacha vaznga ega bo‘ladi.



4 QR-kodni skanerlang























Kaktus



Kaktus – sahro o‘simligi, tanasida namlikni saqlash qobiliyatiga ega. U cho‘lning jazirama quyoshidan qo‘rqmaydi. Yog‘ingarchilik mavsumida kaktuslar namlikni ildizi bilan so‘rib oladi va uzoq vaqt davomida poyalarida saqlaydi. Yirik kaktuslar bir necha tonnagacha suvni saqlashga qodir, shu bilan yil davomida suv ichmasa ham bo‘ladi. Kaktus tikanlari uni o‘txo‘r hayvonlardan himoya qiladi.



Uzoq umr ko‘radigan Sereus kaktusining balandligi 20 metrga yetadi.

Eng qizig‘i, bu kaktusning mevalarini yesa bo‘ladi. Kaktuslar cho‘lda sayohatchilarning hayotini saqlab qolgan paytlar ham bo‘lgan.



5 QR-kodni skanerlang























Plastilin kamalak



Plastilin loy, yog‘, mum va bo‘yoqlar qorishmasidan tayyorlanadi.

Oldinlari plastilin tozalovchi vosita sifatida faqat kulrang ko‘rinishda ishlab chiqarilgan. Tasodifan bolalarning qo‘liga tushib qolgan plastilin ularga yoqib qoladi. Loydan farqli ravishda plastilin qo‘lga yopishmaydi va havoda qurib qolmaydi. Plastilinni nafaqat bolalar, balki kattalar ham hajmli rasmlar va multfilmlar yaratishda qo‘llaydilar.

Plastilin bilan ishlashning qanday muhim qoidalarini bilasiz?



Kamalak go‘zal tabiat hodisalaridan biri bo‘lib, bunda yomg‘ir tomchilari orqali o‘tib sinadigan nur rang-barang chiziqlardan iborat tasma hosil qiladi. Quyosh nurlari suv tomchilarida spektrning yetti rangiga bo‘linadi. Bular: qizil, sabzirang, sariq, yashil, havorang, ko‘k, siyohrang. Bu ranglarning tartibi hech qachon o‘zgarmaydi.

Bir vaqtning o‘zida ham yomg‘ir yog‘ib, ham quyosh nur sochib tursa, kamalak paydo bo‘ladi. Ba’zan favvorada ham kamalakni ko‘rish mumkin. Kamalakni ko‘rish uchun siz quyoshga orqa o‘girib turishingiz kerak.



6 QR-kodni skanerlang

























O'RTA TA'LIM MAKTABI

Sher

7 QR-kodni skanerlang


























Kiyik

8 QR-kodni skanerlang

























Toshbaqa

9 QR-kodni skanerlang

























O‘rdakcha

10 QR-kodni skanerlang

























Kapalak qurti

11

QR-kodni skanerlang

Kapalak qurti – kapalak tuxumidan chiqadigan, chuvalchangga o‘xshash lichinka. Kapalak qurtlari turli o‘lcham va ranglarda, tukli yoki silliq bo‘lishi mumkin. Turli xil kapalak qurtlarining uzunligi bir necha millimetrdan 12 santimetrgacha bo‘ladi.

Kapalak lichinkasini o‘simlik bargiga qo‘yadi. Bu lichinkalar tinimsiz barg yeb oziqlanadi. Keyin atrofiga pilla to‘qib g‘umbakka, g‘umbak esa chiroyli kapalakka aylanadi.



















Kapalaklar

12 QR-kodni skanerlang





















Quyidagi mavzularda kompozitsiyalar yasang:
1-guruh – “O‘rmon va unda yashovchi jonzotlar”;
2-guruh – “Cho‘l va unda yashovchi jonzotlar”;
3-guruh – “Suv havzalari va unda yashovchi jonzotlar”.

Gullar

13 QR-kodni skanerlang

























Gullar



14 QR-kodni skanerlang
























Ayyor tulki



Malla tulkivoy ko‘plab ertaklarning mashhur qahramonidir. U ayyor, aqlli va makkor. Hayotda ham shunday. Ovchilardan qochish kerak bo‘lsa, tulki izlarini dumi bilan supurib yo‘qotadi. Shunday qilib ovchilarni chalg‘itadi. Bundan tashqari, qishda tulkilar ajoyib momiq dumi bilan xuddi adyolga o‘ralgandek o‘ralib, o‘zlarini isitadi. Tulkilar itsimonlar oilasiga mansub bo‘lib, kuchuklarning qarindoshi hisoblanadi. Ular kuchli hid bilish qobiliyatiga ega va juda sezgir. Tulkilar chuqur uyalarda yashaydi, kechalari mayda kemiruvchilarni ovlaydi.




15 QR-kodni skanerlang

























Mandarin daraxti



Mandarin – sitruslar turkumiga kiruvchi doim yashil bo‘lib turadigan o‘simlik. Balandligi besh metrgacha bo‘lib, buta yoki kichik daraxt shaklida o‘sadi. Yuz yilgacha yashashi mumkin. Mandarin daraxti besh yilda meva bera boshlaydi. U nam iqlimli, issiq o‘lkalarda o‘sadi. Mandarin daraxti juda chiroyli, barglari yam-yashil bo‘lib yaltirab turadi, mevalari yorqin zarg‘aldoq rangda bo‘ladi.

Ba’zi mandarinlar urug‘siz bo‘ladi.





16 QR-kodni skanerlang
























Qorbolalar

17 QR-kodni skanerlang

Havo-pufakchali plyonkani 1957-yilda amerikalik muhandis El Filding va shved ixtirochisi Mark Chavannes o‘ylab topishgan. Ular yuviladigan devor gulqog‘ozi ustida ishlash jarayonida yangi, havo-pufakchali noyob mahsulotni ixtiro qilishdi. Ular ushbu mahsulot interyer dizayni uchun emas, balki qadoqlash sohasida juda qo‘l kelishini tushunishdi. Bu ixtiro ularga muvaffaqiyat keltirdi.



Asalari

18 QR-kodni skanerlang

























O‘yinchoq yasaymiz

19 QR-kodni skanerlang


























O‘yinchoq yasaymiz

20 QR-kodni skanerlang

























Ramka

21 QR-kodni skanerlang



























Chiqitga chiqqan materialdan yasash mumkin bo‘lgan buyum o‘ylab toping va uni yasang.







Xonqizi



Xonqizi – hammaga tanish, qora nuqtachali qizil qo‘ng‘iz. U o‘simliklar sharbatini so‘rib oziqlanadigan zararkunandalarni ovlaydi. Xonqizining yorqin rangi yirtqich jonzotlarni qo‘rqitadi. Xavf tug‘ilsa, u o‘zidan sutga o‘xshash suyuqlik chiqaradi. Ko‘pchilik qora nuqtalari soniga qarab xonqizining yoshini bilib olish mumkin, deb o‘ylaydi. Biroq bu xato. Bu nuqtalar xonqizining turini bildiradi.



22 QR-kodni skanerlang

























Asalari

23 QR-kodni skanerlang

Asalari hamma biladigan, eng mehnatkash hasharotdir.

Asalari insonga shifobaxsh va mazali ozuqa – asal tayyorlab beradigan yagona hasharotdir.

Qadim zamonlardan asalari mehnatsevarlik ramzi hisoblangan. Ilgari odamlar yovvoyi asalarilarning asalini yig'ganlar. Keyinchalik asalarini ko'paytirish maqsadida maxsus uychalar – asalari uyalari qurib, asalarichilik bilan shug'ullana boshlaganlar.



















Mushukcha

24 QR-kodni skanerlang

Uy hayvonlari xonadonga xush kayfiyat bag‘ishlaydi. Ko‘p uy hayvonlari oila a’zolarining do‘stiga aylanadi. Uyimizda biror hayvonning borligi bizni yanada mehribon, sezgir va kirishimli qiladi. Biroq uyda hayvon boqish katta mas’uliyat ekanini unutmasligimiz kerak. Jonivor – tirik mavjudot, o‘yinchoq emas. U doimiy e’tibor hamda g‘amxo‘rlikni talab qiladi.



















Tarvuz-yelpig‘ich



Yelpig‘ich – issiq havoni haydab turish uchun mo‘ljallangan moslama. Yelpig‘ich qadim zamonlarda paydo bo‘lgan. Bu buyumni bir vaqtlar shunchaki chiroyli bo‘lgani uchun emas, balki zarurat tufayli ishlatishgan – unda konditsionerlar yoki boshqa havoni sovitish uskunalari bo‘lmagan.

Dunyoning ko‘plab xalqlari: ispan, xitoy, yapon, koreys raqslariga yelpig‘ich o‘zgacha zeb beradi. Shuningdek, yelpig‘ich bilan xona interyerini ham bezash mumkin. Yelpig‘ichlar qog‘oz, mato, yog‘och, patlar hamda yengil plastmassadan yasaladi.





25 QR-kodni skanerlang























www.idum.uz saytidan yuklab olindi

Guldasta



Florist – uylar va binolarni gullar bilan bezatadigan, chiroyli guldastalar va gul savatlari yig'adigan mutaxassis. Florist tirik va sun'iy gullar bilan ishlaydi. U bayram va tantanalar bo'lib o'tadigan maydonlarni bezatadi. Ko'pgina xalqlar madaniyatida gullarning katta o'rni bor.

Ular bezak sifatida ishlatiladi va e'tibor belgisi bo'lib xizmat qiladi. Odamlar, odatda, yaqin va aziz insonlariga guldastalar taqdim etishadi. Har doim ham tabiiy gullardan guldasta yig'ib, kimnidir xursand qilishga imkon bo'lavermaydi, shuning uchun odamlar sun'iy gullar yasashni o'rgandilar va ishlab chiqara boshladilar.





26 QR-kodni skanerlang























Robot

"Robot" so'zi chex tilidagi "robota" so'zidan olingan bo'lib, "ish" degan ma'noni anglatadi. **Robotlar** bu inson mehnatini yengillatadigan, avtomat mashinalardir.



Robot yasang













27 QR-kodni skanerlang


























“Quyosh tizimi” loyihasi



Quyosh va uning atrofida aylanadigan barcha sayyoralar, kometalar, sun’iy yo‘ldoshlar **Quyosh tizimini tashkil etadi**. Unda 8 ta sayyora bor: Merkuriy, Venera, Yer, Mars, Yupiter, Saturn, Uran, Neptun. Barcha sayyoralar Quyosh atrofida, o‘z orbitalarida bir xil yo‘nalishda harakatlanadi. Ilgari Pluton ham Quyosh tizimidagi sayyoralar qatoriga kiritilgan edi. Lekin bu tizimda kattaligi taxminan Plutondek yana 50 ga yaqin sayyora topilgach, u mitti sayyora deb hisoblanadigan bo‘ldi.





Quyosh tizimining maketini yasang.

28 QR-kodni skanerlang

























Buterbrod tayyorlaymiz

“Buterbrod” – nemis tilidan tarjima qilganda “sariyog‘ bilan non” degani. Buterbrodning asosi nondir.

Buterbrod tayyorlash qoidalari:

- buterbrod bevosita dasturxonga tortishdan oldin tayyorlanadi;
- buterbrod uchun mahsulotlar yangi bo‘lishi kerak;
- non juda qalin yoki yupqa kesilmasligi kerak (taxminan 1 santimetr);
- non yuzasi to‘liq mahsulotlar bilan qoplangan bo‘lishi kerak;
- buterbrodni bezash uchun ishlatiladigan sabzavotlar va ko‘katlar yaxshilab yuvilishi kerak;
- buterbrodlarni muzlatkichda 3 soatdan ko‘p saqlab bo‘lmaydi.



Pichoq bilan ishlash qoidalari:

- mahsulotlarni faqat taxtakachda to‘g‘rang;
- pichoqning dastasini oldinga qilib uzating;
- qo‘lingizda pichoq bo‘lsa, chalg‘imang;
- qo‘lingizdan tushib ketayotgan pichoqni ushlashga urinmang;
- har safar pichoq ishlatgandan keyin uni yuvib qo‘ying;
- pichoqning o‘tkir tig‘ini yalang qo‘l bilan yuvmang.







Salat tayyorlaymiz

Salat – sabzavot, mevalar va boshqa mahsulotlar aralashtirib tayyorlanadigan yengil taom.

Salatlar go‘shtli, baliqli, sabzavotli va mevali bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, sovuq va issiq salatlar bo‘ladi. Salatlar nafaqat xom sabzavotlardan, balki pishgan mahsulotlardan ham tayyorlanishi mumkin.

Sabzavotli salat vitaminlarga boy bo‘ladi, shuning uchun u foydali taom hisoblanadi.

Sabzavotlar qorong‘i va salqin joyda saqlanishi kerak. Sabzavotlarni uzoq muddat saqlash uchun ular tuzlanadi, quritiladi yoki muzlatiladi.





Xom sabzavotlardan salat tayyorlash qoidalari:

- salat tayyorlash uchun sabzavotlarni yaxshilab yuvish kerak;
- sabzavotlar ezilib ketmasligi uchun ehtiyotkorlik bilan aralashtiriladi;
- bunday salat bevosita dasturxonga tortishdan oldin tayyorlanadi;
- salatga o‘simlik yog‘i, smetana yoki mayonez qo‘shish mumkin.











Paxtadan qo‘zichoq yasaymiz



Paxta – g‘o‘zaning chigitlarini qoplaydigan tola. G‘o‘za – balandligi 3 metrgacha yetadigan buta.

Tola hosil bo‘lishidan oldin bir necha bosqichdan o‘tadi:

- Oldin kurtak hosil bo‘ladi. Keyin undan asta-sekin gul ochilib chiqadi.
- Gulning rangi boshida sariqdan pushti rangga o‘zgaradi. Keyin u tushib ketadi va hosil paydo bo‘ladi. Bu ko‘sak deyiladi.
- Ko‘sak asta-sekin kattalashib boradi. Uning ichida paxta tolalari shakllanadi. Keyin ko‘sak yorilib, paxta tolalari yuzaga chiqadi.



Chanoqlardan paxta xomashyosi teriladi va paxtani qayta ishlash zavodlariga olib boriladi. U yerda paxta tolalari tozalanib, titiladi, so‘ngra presslanadi.

Paxta tolasidan gazlamalar, tibbiy paxta, maishiy paxta (ko‘rpa, ko‘rpacha va yostiqlar ichiga solinadigan) ishlab chiqariladi.

29 QR-kodni skanerlang

























Skvish o‘yinchog‘i



Skvish – bu qo‘lda ezg‘ilanadigan ermak o‘yinchoq. Ingliz tilida “squishy” so‘zi “shilimshiq, yopishqoq” ma’nolarini anglatadi. Skvish o‘yinchog‘i qo‘lda ezilganda shaklini o‘zgartiradi va yana o‘z holiga qaytadi. Skvishning ichini porolon yoki sintepon bilan to‘ldirsa, bu materiallar shaklni yaxshi ushlaydi va yig‘ilib qolmaydi. Oddiy paxtadan ham skvish yasash mumkin.

Skvishlar quyidagi shakllarda bo‘lishi mumkin:

- rang-barang hayvonchalar,
- tort va pirojniylar,
- mevalar va boshqa qiziqarli narsalar.





30 QR-kodni skanerlang


























To‘quvchilik ipidan kuchukcha



Iplar paxta, zig‘ir, hayvon juni va ipak qurti pillasidan tayyorlanadi. Polimer xomashyosidan olinadigan sun’iy iplar ham bor. Kiyim tikishda ishlatiladigan iplar tikuv iplari deb ataladi. Kashta tikish uchun esa muline ipidan foydalaniladi. Ammo eng ko‘p ip mato ishlab chiqarishda kerak bo‘ladi.

Jun iplar qo‘y, echki, tuya junidan tayyorlanadi. Jundan qo‘lqoplar, ro‘mollar, sharflar, paypoqlar, nimchalar to‘qiladi. To‘qishda ishlatiladigan ip to‘quv ipi deb ataladi. Zavodlarda jundan yupqa iplar yigiriladi, keyin ulardan issiq kiyimlar: kostyum, palto, ko‘ylaklar tikish uchun jun mato tayyorlanadi.



31 QR-kodni skanerlang

























Fetrdan stakan tagligi



Fetr (namatcha) – jun tolasidan tayyorlanadigan tolali material. Issiq suv, bug‘da junga ishlov berib, bosim ostida ushlanadi.

Ushbu materialdan turli xil o‘yinchoqlar, naqshlar tayyorlash mumkin. U nafaqat dekorativ material, balki undan mebel, avtomobil, musiqa asboblari ishlab chiqarishda va qishloq xo‘jaligida ham foydalaniladi.

Fetr bilan ishlashda uning qalinligini hisobga olish kerak. Qo‘l ishlari uchun yupqa fetr ko‘proq mos keladi, uni qaychida kesish osonroq.



Stakan tagligi stol yuzasini qirilish va issiqdan qoladigan dog‘lardan himoya qilish uchun kerak. Piyola, stakan yoki chashkaga issiq choy quyishdan oldin stol ustiga taglik qo‘ygan ma’qul.

U turli xil materialdan tayyorlanadi. Jumladan: yog‘och, plastik, tosh, shisha, karton, keramika. Stakan tagligi interyerni bezatadigan esdalik sovg‘asi sifatida ham beriladi.

Noyob shakldagi stakan tagligini o‘zingiz ham yasashingiz mumkin. Masalan, fetrdan tikish, yopishtirish, yog‘ochdan kesib olish va hatto to‘qish ham mumkin.

32 QR-kodni skanerlang

























Tikishni o‘rganamiz

Igna va ip bilan ishlash qoidalari:

- ignalarni aniq bir joyda saqlang (igna yostiqchasi yoki qutichada);
- ignani og‘izga solish, kiyimga qadab qo‘yish mumkin emas;
- stolning ustida igna qoldirish mumkin emas;
- ignani faqat ip bilan yoki igna qadalgan yostiqchada birovga uzatish mumkin;
- ishlatishdan oldin va keyin ignalar sonini tekshiring;
- ipni tishlab yoki qo‘lda tortib uzmang, qaychidan foydalaning.



33, 34 QR-kodni skanerlang

1-chok













2-chok













Barg naqshli kashta

35

QR-kodni skanerlang

























Gul naqshli kashta

36

QR-kodni skanerlang


























Tugma qadaymiz

37 QR-kodni skanerlang













Tugmalardan naqsh yasash



Tugmalar qanday bo‘ladi?
Tugma nima uchun kerak?
Tugmalar bilan nimani bezatish mumkin?





www.idum.uz saytidan yuklab olindi

Mundarija

1-dars. Rangli qog'ozdan qush yasash 6
2-dars. Origami kit 8
3-dars. Rangli qog'ozdan chumoli yasash 10
4-dars. Qurbaqa 12
5-dars. Kaktus 14
6-dars. Plastilin kamalak 16
7-dars. Sher 18
Kiyik 19
8-dars. Toshbaqa 20
O'rdakcha 21
9-dars. Kapalak qurti 22
Kapalaklar 23
10-dars. Gullar 24
11-dars. Ayyor tulki 26
12-dars. Mandarin daraxti 28
13-dars. Qorbolalar 30
Asalari 31
14-dars. O'yinchoq yasaymiz 32
15-dars. Ramka 34
16-dars. O'zingiz yasang 35
17-dars. Xonqizi 36
18-dars. Asalari 38
Mushukcha 39
19-dars. Tarvuz-yelpig'ich 40
20-dars. Guldasta 42
21-dars. Robot 44
22-dars. "Quyosh tizimi" loyihasi 46
23-dars. Buterbrod tayyorlaymiz 48
24-dars. Salat tayyorlaymiz 50
25-dars. Paxtadan qo'zichoq yasaymiz 52
26-dars. Skvish o'yinchog'i 54
27-dars. To'quvchilik ipidan kuchukcha 56
28-dars. Fetrdan stakan tagligi 58
29-dars. Tikishni o'rganamiz 60
30-dars. Barg naqshli kashta 62
Gul naqshli kashta 63
31-dars. Tugma qadaymiz 64
32-dars. Tugmalardan naqsh yasash 65

Darslik holati haqida ma'lumot

№	O'quvchining F. I. Sh	O'quv yili	Darslik olingan vaqtdagi holati	Sinf rahbarining imzosi	Darslik qaytarib berilgan vaqtdagi holati	Sinf rahbarining imzosi
1						
2						
3						
4						
5						
6						

Darslikni olish va o'quv yili oxirida uni qaytarishda yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan quyidagi mezonlarga muvofiq to'ldiriladi

Yangi	Darslikning holati a'lo darajada
Yaxshi	Muqovasi butun, kitobning asosiy qismidan uzilmagan. Barcha sahifalar mavjud, butun, yirtilmagan, yelimi ko'chmagan
Qoniqarli	Muqovasi ezilgan, shikastlangan, kitobning asosiy qismidan qisman ajralgan va foydalanuvchi tomonidan tiklangan. Qayta tiklash ishlari qoniqarli. Yirtilgan sahifalar yopishtirilgan, ba'zi sahifalari yirtilgan
Qoniqarsiz	Muqovasiga chizilgan, kitobning asosiy qismidan to'liq yoki qisman yirtilib, uzilgan, qoniqarli tiklangan. Sahifalari yirtilgan, ba'zi sahifalari yo'q, bo'yalgan, ifloslangan, tiklash mumkin emas

Ismailova Ra'no Rustamovna

Texnologiya
3-sinf

Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik

"Novda Edutainment"
Toshkent – 2023

Muharrirlar:	*Sh.Muslimova, D.Xudoyorova*
Badiiy muharrir	*A.Sobitov*
Musahhih	*X.Serobov*
Rassom	*R.Ismailova*
Dizayner va sahifalovchi	*I.Tursunov*

Nashriyot litsenziyasi AI №158. 01.07.2023-yilda original-maketdan bosishga ruxsat etildi. Bichimi 60×84/8. Kegli 14 n/shponli. "Arial" garniturasi. Ofset bosma usulida bosildi. Mashinada yengil bo'rlangan (Machine Finished Coated) 80 g/m^2 qog'oz. Shartli b.t. 8,5. Hisob-nashriyot t. 0,96. Adadi 626 983 nusxa. Buyurtma raqami 23-347. "O'zbekiston" NMIUda chop etildi.